

Viloyatlar tomon aniq maqsadlar sari

Institutimizda "Innovatsiya" guruhi deya nom olgan Hidromelioratsiya fakulteti "Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish" ta'lim yo'nalishi 307-guruh talabalari guruh murabbiyi Sanobar Do'stnazarova boshchiligida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida joylashgan maktab o'quvchilari va alohida maktab bitiruvchilari uchun qiziqarli ochiq darslar tashkil etishni an'anaga aylantirib, o'tgan oylar davomida sezilarli natijalarga erishganliklari xususida avval ham xabar bergan edik. Ushbu guruh fidoiylarining endigi maqsadi o'z an'alarini Respublikamiz viloyatlari, chekka tumanlari bo'ylab davom ettirishdir.



Ezgu maqsad sari intilayotgan ushbu jamoaning viloyatlar tomon ilk tashrifi Jizzax viloyatining Baxmal tumanidan boshlandi. Baxmal tumaniga yetib kelgan "Innovatsiya" guruhining iqtidorli talabalari Azizbek Hasanov va Jahongir Muxtorovlar hamda ularning guruh murabbiyi Sanobar Do'stnazarova tashrifni rejaga muvofiq tumanning "Mo'g'ol" qishlog'ida joylashgan 45-umumiy o'rta ta'lim maktabi va "Novqa" qishlog'ida joylashgan 11-umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan uchrashuvlar tashkil etib, ularni ta'limning keyingi bosqichiga jalb etish, xususan, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti haqida o'quvchilarga ko'proq ma'lumotlar berish, berilgan ma'lumotlarni avvaldan tayyorlangan videoroliklar hamda taqdimotlar yordamida chuqurroq yoritishga harakat qilindi. Taqdimotlarda asosan institut faoliyati haqida umumiy ma'lumotlar, fakultetlar va ta'lim yo'nalishlari, talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar, institutga kirish uchun imtixon topshiriladigan fanlar, o'tgan yillardagi kirish ballari bo'yicha ko'proq ma'lumotlar bitiruvchilarga yetkazildi.



Amalga oshirilgan tashrif nafaqat maktab bitiruvchilari, shuningdek, maktab rahbariyati va o'qituvchilari tomonidan ham katta qiziqish bilan qarshi olindi. Maktab direktorlari tomonidan bildirilgan fikrga ko'ra, ushbu maktab bitiruvchilarining o'tgan yillar davomida Oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlarining pastligi asosan bitiruvchilarning Oliy ta'lim muassasalari haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasliklari hamda ularda qiziqish va ishtiyoq uyg'otish uchun institutlar tomonidan mana shunday uchrashuvlarning Respublikamiz olis tuman va qishloqlarida deyarli tashkil etilmasligidan deya baholandi. Maktab tarixida ilk bora deya ta'riflangan tashrif va tashkil etilgan yuqori saviyadagi uchrashuv hamda qizg'in savol-javoblar uchun maktab rahbariyati, pedagoglar jamoasi va maktab ota-onalar Kengashi tashkilotchilarga, institut rahbariyatiga chuqur minnatdorchilik bildirishdi. Kelgusida bunday uchrashuvlarni yanada ko'proq tashkil etishga va Respublikamizda karantin cheklovlari yumshatilgandan so'ng maktab o'quvchilarining Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga tashrifini tashkil etishga kelishib olindi. Jamoaning viloyatlar tomon tashrifining ilk kuni mana shunday yakunlandi.

Gidromelioratsiya fakulteti 307-guruh talabasi Azizbek Hasanov axboroti
TIQXMMI matbuot xizmati